

Mumin Mirzo M. ABDUPATTAYEV,
*Lecturer of the UNESCO Department for
Religious Studies, International Islamic
Academy of Uzbekistan, PhD
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan
E-mail: mirzo21@umail.uz*

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-4/9

SOBIIYLIK E'TIQODI HAQIDA

ABOUT THE BELIEFS OF SABIANS

О ВЕРАХ В САБИИТЫ

KIRISH

Qur'oni karimda zikri kelgan sobiiylik e'tiqodi haqida o'zbek tilida ma'lumotlar juda kam. Bor ma'lumotlarning aksariyati Baqara surasi 62-, Moida surasi 69- va Haj surasi 17-oyatlar ma'nolarining tarjima va tafsirida keltirilgan. Qur'onda sobiiylik kalimasi «sobiin» (الصَّبِيَّيْنِ) va «sobiun» (الصَّبِيُّونَ) ko'plik shaklida kelgan. «Sobiyy» so'zi lug'atda «moyil bo'lgan», «og'ishgan», «dindan chiqqan» degan ma'nolarni anglatadi (Al-Mo'jam al-vasiyt, 2004). Mashhur mufasssir olim Faxriddin Roziy o'zining «Mafoteh al-g'ayb» tafsirida sobiiylar haqida shunday deydi: «Alloh taoloning «sobiiylar» ifodasi, bir dindan chiqib ikkinchi dinga kirgan kishiga nisbatan ishlatilgan «saba'a» (صَبَا) fe'lidandir. Bu ma'noda arablar Hazrati Muhammad (s.a.v.) va sahobalarni «sobiyy», deb nomlaganlar. Chunki, u zot ularning dinidan boshqa din olib kelganlar. Bu ma'noda yulduzlar paydo bo'lgan zamon صَبَاتُ النُّجُوم (saba'at an-nujum) ya'ni «yulduz chiqdi», yoki biror kishini biror joyga chiqarganda صَبَاْنَا (soba'na bihi) «Uni chiqardik» deyiladi.

ASOSIY QISM

Mufasssirlarning sobiiylar kimligi haqida turli fikrlari mavjud:

1. Mujohid va Hasan Basriy bu toifaning so'ygan hayvonlarini yeb bo'lmaydigan, ayollari bilan turmush qurish mumkin bo'lmagan majusiy va yahudiylardan bo'lgan bir qavm ekanini aytganlar.

2. Qatoda esa, sobiiylar farishtalarga sig'inadigan, har kuni besh marotaba quyoshga qarab ibodat qiladiganlar ekanini aytib, «Beshta

din bor. To'rttasi shaytonning, bittasi Allohning dinidir. Farishtalarga sig'inadigan sobiiylar, olovga ibodat qiladigan majusiylar, butlarga topinadigan mushriklar va Ahli kitobdir», degan.

Faxriddin Roziy keltirishicha, sobiiylar yulduzlarga qarab topinadigan bir qavmdir. Ularning bu xususda qarashlari-e'tiqodlari quyidagilardir: «Butun koinotning yaratuvchisi Allohdir. Faqat U, yulduzlarga yuzlanib ibodat qilishni, ularni ibodat va duo uchun qibla qilishni amr etgan. Alloh farishtalar va yulduzlarni yaratgan. Faqat olamdagi yaxshilik, yomonlik, sihat va hastalik kabi narsalarni idora qiladigan, tartiblagan va yaratgan bu yulduzlardir. Shuning uchun insonlar ularga qarab sajda qilishlari shart. Chunki yulduzlar olamni idora qiladigan ilohlardir. Bu yulduzlar esa Allohga ibodat qilishadi». Sobiiylar Ibrohim payg'ambarning yolg'onchiga chiqargan Kaldoniylarning bir oqimidir» (Roziy, 1981).

Dinlar tarixi va e'tiqodlari borasidagi ilk fundamental asarlardan biri «al-Fisol»da muallif Ibn Hazm sobiiylar haqida shunday fikrlarni bildirgan: «Olamni idora etuvchilar ko'pligini da'vo qiluvchilar toifasiga sobiiylar ham kiradi. Sobiiylar majusiylar kabi ikki asl – nur va zulmatni qadim ekaniga e'tiqod qilishadi. Faqat ular yetti yulduz va o'n ikki burjga sajda qilishadi. Bularni (yetti yulduz va o'n ikki burj) ibodatxonalarida tasvirlashib, ularga atab qurbonliklar qilishadi. Ularning musulmonlarning namoziga o'xshash kunda besh marta amalga oshiradigan namozlari bor. Ramazonda ro'za tutishadi, namozlarida Ka'ba va Makka yo'nalishadi, o'lik hayvonlarning etini, qonini va to'ng'izni harom hisoblashadi, qarindoshlarga uylanish ularda ham harom hisoblanadi. Sobiiylarning dini dunyodagi eng qadimgi dinlardandir. Sobiiylar bir jihatdan xristianlarga mansub, boshqa jihatdan esa ulardan ayri. Mansubliklari shuki, ular xristianlar kabi borliqning yaratuvchisi «taslis» ekanini qabul qilishadi. Xristianlarga zid kelishlari esa, yunon faylasfi Germesni Idris payg'ambar deb qabul qilishlari va uning shariatiga ergashishlaridir» (Hazm, 2011). Ibn Hazmning ta'rifi sobiiylik haqidagi o'rta asrlardagi qarashlarni to'ldiradi, ularning hukmiy qoidalarini ochiq lab beradi.

XII asr mashhur olimi Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy «al-Milal va-n-nihal» asarida katta o'rinni sobiiylik e'tiqodi bayoniga ajratgan. Asarning ikkinchi «Ahl al-ahva va-n-nihal» (Xohishiga ergashgan firqalar), deb nomlangan qismi sobiiylik e'tiqodi bilan boshlangan. «Sobiiylar

Annotatsiya. Ushbu maqola Qur'oni karimda zikr etilgan sobiiylik e'tiqodi haqida ma'lumotlarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada sobiiylikka oid ma'lumotlar Baqara surasi 62-oyat, Moida surasi 69-oyat va Haj surasi 17-oyati asosida tahlil qilingan. Sobiiylik atamasining lug'aviy ma'nolari va turli tafsir olimlarining sobiiylik haqidagi fikrlari o'rganilgan. Mufasssir Faxriddin Roziyning sobiiylar e'tiqodi haqidagi tushunchalari, Ibn Hazm, Shahrisoniy, va boshqa mashhur olimlarning asarlarida bayon etilgan sobiiylik so'zining ma'nolari o'zaro taqqoslanadi.

Maqolada sobiiylikni aniq tushunish uchun uch asosiy guruhga ajratilgan: haqiqiy sobiiylik (mandoiylik), Harron sobiiylari, va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hamda uning sahobalariga nisbatan sobiiylik. Harron sobiiylarining tarixi, ularning Mesopotamiyadagi ibodatxonalari va ilm-fan sohasidagi yuksak natijalari keltirilgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalariga nisbatan sobiiylik tushunchasi ham yoritilgan.

Shuningdek, maqolada sobiiylarning diniy e'tiqodlari va ibodat usullari haqida batafsil tahlil olib boriladi. Sobiiylar o'z dinlarini dinlarning eng qadimiysi sifatida ko'rib, yulduzlarga qarab topinishgan, ammo islomning tarqalishi bilan ular musulmonlar tomonidan «ahli zimma» maqomiga ega bo'lgan.

Kalit so'zlar: sobiiylik, harroniylar, farishtalar, tafsir, Ibn Kasir, Tabariy, Ginza.

Abstract. This article is dedicated to exploring Sabian belief system mentioned in the Qur'an. The article analyzes references to Sabianism based on Surah Al-Baqarah (2:62), Surah Al-Ma'idah (5:69), and Surah Al-Hajj (22:17). The linguistic meanings of the term «Sabianism» and the views of various Quranic commentators on Sabianism are discussed. The understandings of Sabian beliefs by the exegete Fakhruddin al-Razi are compared with the interpretations of other prominent scholars such as Ibn Hazm, Al-Shahrastani, and others.

The article categorizes Sabianism into three main groups for a clearer understanding: true Sabianism (Mandaeism), the Harranian Sabians, and the application of the term Sabianism to Prophet Muhammad (peace be upon him) and his companions. The history of the Harranian Sabians, their temples in Mesopotamia, and their significant contributions to science are highlighted. Additionally, the concept of Sabianism in relation to Prophet Muhammad and his companions is also examined.

The article provides a detailed analysis of the religious beliefs and worship practices of the Sabians. The Sabians considered themselves followers of the oldest religion and were known for their star worship. However, with the spread of Islam, they were granted the status of «Ahl al-Dhimma» by Muslims.

Keywords: Sabianism, Harranian beliefs, angels, Quranic exegesis, Ibn Kathir, Tabari, Ginza.

Аннотация. Эта статья посвящена изучению о вероучении сабейства, упомянутом в Коране. В статье анализируются сведения о сабействе на основе аятов 62 из суры аль-Бакара, 69 из суры аль-Маида и 17 из суры аль-Хадж. Обсуждаются лексические значения термина сабейство и мнения различных ученых муфасссиров относительно сабейства. Сравниваются концепции сабейства в трудах известных ученых, таких как Фахруддин ар-Рази, Ибн Хазм, Шахристани и других.

В статье сабейство разделено на три основные группы для более четкого понимания: истинное сабейство (мандаизм), сабейство харранитов и сабейство, связанное с Пророком Мухаммадом (мир ему) и его сподвижниками. Рассматриваются история харранитских сабейцев, их храмы в Месопотамии и высокие достижения в области науки и знаний. Также освещено понятие сабейства в отношении Пророка Мухаммада и его сподвижников.

Кроме того, в статье проводится подробный анализ религиозных убеждений и обрядов сабейцев. Сабейцы считали себя самой древней религией и поклонялись звездам, однако с распространением ислама они были признаны мусульманами как «ахл аль-зимма» (защищенные люди).

Ключевые слова: сабианство, харранизм, ангелы, толкование, Ибн Касир, Табари, Гинза.

Ibrohim millati hanifligining ziddi hisoblanadi. Bu so'zning ma'nosi «mayl bildirmoq, yo'ldan adashmoq» deganidir. Sobiiylar Alloh taoloning yaratilargiga sig'inishga mayl bildirishgani va payg'ambarlarning nurli yo'lidan adashganlari uchun shu nom bilan atalganlar. Sobiiylar ruhoniylar xilqatiga suyanishsa, haniflar payg'ambarlarga

suyanishadi. Sobiiylar uchun iktisob (narsalarning sodir bo'lishi) muhim bo'lsa, haniflar uchun fitrat asosdir» (Shahrisoniy, 1968). Shahrisoniy shu bilan birga kitobida haniflar va sobiiylarning javhar, fe'l-harakat, hol, modda-hayulo, shahvat va g'azab, ilm va amal, quvvat kabi falsafiy masalalardagi savol-javoblarini keltirgan.

MUHOKAMA

Zamonaviy tadqiqotlar va manbalarda sobiiylikka oid ma'lumotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Haqiqiy sobiiylik (mandoiylik)
2. Harron sobiiylari (Sin kulti)
3. Payg'ambar va u zotning sahobalariga nisbat berilgan sobiiylik.

Qur'onda zikr qilingan sobiiylik qanday e'tiqod ekanini aniqlash bo'lgani uchun, asosiy maqsadga erishishga yordam berishi e'tiboridan harroniylar va Payg'ambarga nisbat berilgan sobiiylik haqida ham qisqacha to'xtalinadi.

Harron sobiiylari. Harron bugungi Turkiya Jumhuriyatining Shanliurfa viloyatidagi bir tuman bo'lib, qadim tarixi va o'ziga xos arxeologik me'moriy obidalar bilan mashhur. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Harron 4300 yillik tarixga ega (Başaran, 2011). Tarix mobaynida Harron Mesopotamiya, Ossuriya, Bobil, Yunon-makedon, Vizantiya va arab xalifaligi tomonidan boshqarilgan. Harron aholisi butparast bo'lib, harroniylar deb atalgan. Klifford Bosvortga ko'ra Harronda asosiy iloh Mesopotamiya Oy xudosi Nanna (keyinchalik Sin nomi bilan tanilgan) bo'lib, shahar Oyni muvqqaddas shahri deb e'tirof etilgan (Bosworth, 2003). Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Harronning bosh ibodatxonasi Oyga nisbat berilgan bo'lib, oy shaklida qurilgan edi. Harron yaqinida Salamsin deb ataladigan va qadimgi nomi «Sanam Sin», ya'ni «Oy sanami» nomli qishloq ham bo'lgan» deb, harroniylar ibodatxonasi haqida ma'lumot beradi (Beruniy, 1968). Tarixchi olimlar Lloyd Seton va Uilyam Braysning tadqiqotlariga suyanadigan bo'linsa Harronning eng katta Oy ibodatxonasi «Exulxul» (Quvonch ma'badi) deb nomlangan bo'lib, miloddan avvalgi 2000-yilda bunyod etilgan (S.Lloyd, W.Brice, 2013).

Milodiy 830-yilda Vizantiyaga qarshi urushga chiqqan Abbosiy hukmdor Ma'mun Harronda uni kutib olgan mahalliy zodagonlarni oyga sig'inishlarini bilgach, ularga urushdan qaytguncha Qu'ronda zikr etilgan yakkaxudolik dinlaridan biriga o'zgartirishni, aks holda ularga qarshi jang olib borishini aytgan. Natijada harroniylarning bir qismi islomga, bir qismi xristianlikka o'tarkan, katta qismi sobiiylikka o'tishni afzal bilishgan (Sinclair, 1990). Shundan so'ng Harronda sobiiylik keng tarqalgan. Harron Abbosiylar davrida falsafa, din, tibbiyot,

astronomiya, matematika va ilm-fanning juda muhim markaziga aylangan. Bu vaqt mobaynida harroniylar sobiiylar, deb atalgan va ko'plab sohalarda yuksak natijalarga erishganlar.

Payg'ambar va sahobalarga nisbat berilgan sobiiylik. Biz yuqorida «sobiiy» kalimasi «bir dindan ikkinchi dinga o'tgan» ma'nosini anglatishini aytib o'tdik. Payg'ambar Muhammad alayhissalomga imon keltirgan sahobalarni Quraysh «sobiiy», deb atashi ularning butparsatlik e'tiqodidan boshqa bir e'tiqod – Islomga imon keltirishlari sababidan edi. Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy «al-Milal va-n-nihal»da aytishicha, Umar (r.a.) imon ketirganda Quraysh u kishini «Umar dindan chiqdi» (قد صبا عمر) deb e'lon qilgan (Shahrisoniy, 1968). Qur'onda qo'llanilgan sobiiy atamasining Muhammad alayhissalom va sahobalarga nisbatan qo'llanilgan «dindan qaytgan» ma'nosini bildiruvchi «sobiiy» nomiga aloqasi yo'q. Qur'onda sobiiylarning diniy guruh sifatida tilga olinishi, boshqa dinlarda bo'lgani kabi, Qur'onda ham sobiiylar uchun yangi nom qo'llanilmagani ularning Hijoz arablari juda yaxshi bilishlarini anglatadi.

Haqiqiy sobiiylik (Mandoiylik). Bugungi kunda sobiiylar Janubiy Iroqning Frot va Dajla qirg'oqlarida yashagan jamoa hisoblanadi. Shuningdek, Eronning Janubiy Iroqqa yaqin hududlaridagi Karun daryosi bo'yidagi kichik shahar va qishloqlarda ham sobiiylar yashaydi. Yaqin Sharqdagi beqarorlik va urushlar tufayli Iroq va Eronda yashovchi sobiiylarning aksariyati dunyoning turli burchaklariga, jumladan, Yevropa va AQShga ko'chib ketishgan. Sobiiylik bo'yicha ko'plab kitoblar ta'lif etgan turk dinshunos olimi Shinosiy Gunduzga ko'ra, dunyo bo'ylab yuz mingga yaqin sobiiylar yashaydi (Gündüz, 2016).

Qur'oni karimning uch oyati – Baqara surasi 62, Moida surasi 69 va Haj surasi 17-oyatlarda sobiiylar zikr qilingan:

Baqara surasi 62-oyat: «Albatta, iymon keltirganlar, yahudiy bo'lganlar, nasoralar va sobiiylardan, qaysilari Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirsa va yaxshi amallarni qilsa, o'shalarga Parvadigorlari huzurida ajrlar bordir. Ularga xavf yo'q va ular xafa ham bo'lmaslar» (Yusuf, 2008).

Ba'zi mufassirlarga ko'ra, sobiiylar yahudiylar va xristianlik orasidagi tavhidda bo'lganlardir. Islom olimlarining aksariyati esa ularni ahli kitobdan emasligini ta'kidlaganlar. Ammo, ba'zi ta'lifotlarda sobiiylikning islom, yahudiylar va xristianlik bilan birga zikr qilinishi va ularning ham o'z kitoblari borligi sababidan ahli kitobdan ekani bayon qilingan

(Kasir, 1999). Islom dini paydo bo'lgunga qadar samoviy dinlarga mansub bo'lganlar, Allohga va oxiratga imon keltirganlar, yaxshi amallar qilganlar, xuddi islomdagi kabi najotga erishganlar. Bu umumiy qoida bo'lib, ushbu oyat shu fikrga urg'u beradi. Aks holda, islom kelgandan keyin, islomni qabul qilmasdan turib, «Allohga va oxiratga ishonib, o'z me'yorida, yaxshi amallar qilish» najotga yetaklamaydi (Yusuf, 2008). Xuddi shunday iboralar Moida surasining 69-oyatida ham uchraydi.

Moida surasi 69-oyat: «Albatta, iymon keltirganlar, yahudiy bo'lganlar, sobiiylar va nasorolardan kim Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirsa va yaxshi amal qilsa, ularga xavf yo'q va ular xafa ham bo'lmaslar» (Yusuf, 2008).

Haj surasi 17-oyat: «Albatta, Alloh qiyomat kuni iymon keltirganlar, yahudiy bo'lganlar, sobiiylar, nasorolar, majusiylar va shirk keltirganlar orasida O'zi ajrim qilur. Albatta, Alloh har bir narsaga shohiddir» (Yusuf, 2008).

Qur'onda sobiiylar nomi tilga olingan bo'lsa-da, ularning e'tiqodi, ibodat qilish usullari va boshqa xususiyatlari haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Biroq, Qur'onda sobiiy nomining tilga olinishi Qur'on nozil bo'lgan davrda sobiiylar arablar tomonidan diniy jamoa sifatida tanilganligini ko'rsatadi. Umar (r.a.) davrida musulmonlar Janubiy Iroq hududlarini fath etganlarida, sobiiylar o'zlarining ham kitobiy ekanlarini isbotlash maqsadida musulmonlarga o'zlarining muqaddas kitobi «Ginza»ni ko'rsatishgan, shuningdek, butparast emasliklarini ham ta'kidlaganlar (Gündüz, 2016). Shundan so'ng musulmon hukmdorlari ularga «ahli zimma» maqomini berganlar. Musulmonlar tomonidan ularga nisbatan yomon munosabatda bo'lmaganlari haqidagi ma'lumotlarni sobiiy matnlarida ham uchratish mumkin.

Shinosiy Gunduz o'z tadqiqotida, sobiiylik Muqaddas kitoblari Falastin-Iordaniya mintaqasi ularning asl vatani sifatida ko'rsatilganini, «Ginza» va «Haran Gavaita» nomli kitoblari borligini, u kitoblarda yahudiylarning tazyiqi natijasida sobiiylarning bu yerdan hijrat qilib Janubiy Iroq (Mesopotamiya)ga ketib qolganlari keltirilganini ta'kidlagan (Gündüz, 2016). Yahudiylar tomonidan amalga oshirilgan qirg'inlardan qutulishga muvaffaq bo'lgan sobiiylar o'z vatanlarini tark etib, Mesopotamiya shimoli-sharqidagi tog'li Medye mintaqasiga joylashganlar. Parfiyada hukmronlik qilgan arshakiylar shohligi (mil. avv. 250 – mil. 244) yordamida bu hududga joylashish imkoniga

ega bo'lgan sobiiylar bu yordamni hech qachon unutmagan va hijrat davrida o'zlarini himoya qilgan arshakiylar shohi I Artabonni (211-191) ulug'lab, unga Ardhan Malka nomini berganlar.

Ular o'z dinlarini barcha dinlarning eng avvalgisi sifatida ko'rishadi. Yahudiylik, xristianlik kabi dinlarning payg'ambari, moniylik, zardushtiylik kabi e'tiqodlarning esa asoschilari borligi inobatga olinsa, sobiiylikda na payg'ambar, na asoschi mavjud. Shuning uchun ular bu din Odamdan boshlanganiga ishonadilar. Islom olimlari Oli Imron surasi 67-68-oyatlarga suyanib, Qur'on nozil bo'lgan zamonda imon keltirganlardan tashqari, undan avval ham tavhidda o'tgan insonlarni Ibrohim payg'ambar timsolida musulmon ekanlarini ta'kidlaydilar. Shuning uchun, islom dini faqat Muhammad alayhissalom bilan boshlangan yoki u zot asos solgan din emas, balki islom shu nom bilan nomlanmasada Odamdan boshlangan Alloh taoloning yagona dinidir. «Ibrohim yahudiy ham, nasroniy ham bo'lmagan edi. Lekin u haq yo'ldan toymagan musulmon edi. Va mushriklardan ham bo'lmagan edi. Albatta, odamlarning Ibrohimga haqlirog'i unga ergashganlar, mana bu Payg'ambar va iymon keltirganlardir. Alloh mo'minlarning valiyidir» (Oli Imron surasi, 67-68-oyatlar). Sobiiylar haqida ma'lumotlar kamligi sababli bu dinning paydo bo'lgan vaqtini aniqlashning iloji yo'q.

Muqaddas kitoblari. Sobiiylik gnostik kultning eng xarakterli xususiyatlarini o'zida mujassam etgani sababli, oz sonli bo'lishiga qaramay, ularda mavjud bo'lgan diniy adabiyotlar asrimizdagi eng ko'p o'rganilgan diniy adabiyotlardan biri hisoblanadi. Ularning diniy matnlarini o'qigan kam sonli olimlardan biri bu Istanbul universiteti Ilohiyot fakulteti professori, dinshunos olim Shinosiy Gunduzdir. Sh.Gunduz sobiiylar manbasi yozilgan til mandoiychani bilishi bilan ham boshqa olimlardan ajralib turadi.

Sobiiylik muqaddas manbalarining tili mandoiycha bo'lib, bu til qadimgi oromiy (mil. avv.v. 900-yillardan beri Suriya, Livan va Isroilda amalda bo'lgan tillardan biri) tilining lahjasi hisoblanadi. Bugungi kunda ko'pchilik musulmonlar arab tilini tushunmasdan faqat ibodat tili sifatida bilganidek, bugungi sobiiylarning aksari kundalik hayotlarida arab tilida gaplashadilar va ibodatlarida mandoiychada yozilgan duolarni ma'nosini bilmasdan o'qiydilar. Bugungi kunda bu tilda sof gaplashuvchilar soni 5.500 nafarni tashkil etadi (Häberl, 2021).

Sobiyylik muqaddas manbalari ikki – yozma va yashirin matnlarga bo‘linadi. Yozma matnlarning eng mashhuri Ginza Rabba kitobidir. Ginza o‘z navbatida «O‘ng Ginza» (Ginza Ymina) va «So‘l Ginza» (Ginza Smala)ga bo‘linadi (Norberg, 1816). Shuningdek, yozma matnlarning faqat ruhoniylar o‘qiydigan qismi ham bo‘lib, yashirin deb qaraladi va sakkiz qismdan iborat. Bundan tashqari yozma matnlar o‘z ichiga she‘rlar, astrologik matnlar va sehr matnlarini ham qamrab oladi.

Sobiylar yillar davomida muqaddas matnlarini boshqa qavmlardan sir saqlab kelishgan. Ularning e‘tiqodiga ko‘ra muqaddas matnlarning boshqalar qo‘liga o‘tishi katta gunoh hisoblanadi. Shu sababdan sobiylar qadim zamonlardan beri o‘zlarining muqaddas kitoblarini qattiq sir saqlaganlar. Chet elliklar qo‘liga tushib qolmaslik uchun ularni ba‘zan metall qutilarga ko‘mib qo‘yishgan bo‘lsalarda, XVI asrdan keyin ular o‘zlarining diniy kitoblarini tadqiqotchilar, arxeologlar va shu kabilar niqobi ostida hududga kirib kelgan g‘arblik missionerlar, siyosiy va harbiy ekspertlardan yashira olmadilar.

Ginza Rabba kitobi. Dinning teologik, mifologik va kosmologik mavzulari Ginzaning katta qismini tashkil etuvchi va 18 bo‘limdan iborat O‘ng Ginzadan o‘rin olgan. So‘l Ginzada esa faqat ruh va uning najot topishi hamda Nur olamiga ko‘tarilishi kabi masalalar yoritilgan. Shu sababli, So‘l Ginza «Sidra d Nishmata» deb ham ataladi, bu «Ruhlar kitobi» degan ma‘noni anglatadi.

Yozma matnlarning Ginza Rabbadan tashqari «Draşa d Yahya» (Yahyo o‘gitlari) deb nomlangan kitobi ham mavjud bo‘lib, bu Yahyo ibn Zakariyo payg‘ambarga nisbat beriladigan manba hisoblanadi. 37 qismdan iborat bo‘lgan bu kitobda suvga cho‘mish (cho‘qintirish) va marosim taomlari kabi ibodatlarini qanday bajarish kerakligi, yovuz kuchlarni mag‘lub etish uchun yorug‘lik yo‘lini tutish kerakligi kabi masalalar o‘rin olgan (Buckley, 2002).

Yozma matnlarning «Qolasta» degan qismida esa kundalik ibodatlarda o‘qiladigan madhiyalar va turli xil duolar o‘rin olgan. Ushbu kitobda ibodat paytida, ayniqsa, eng muhim ibodat turlari bo‘lgan suvga cho‘mish va janoza marosimlarida nima qilish kerakligi haqida ham ma‘lumot berilgan.

Faqat ruhoniylar o‘qiydigan yashirin matnlar: Ushbu matnlar teologik va kosmologik mavzular va turli diniy marosimlar hamda maxfiy ta‘limotlarni o‘z ichiga olgani sababli, faqat ruhoniylar tomonidan o‘qiladi. Chunki oddiy odamlar ushbu matnlarni tushunishlari mumkin emas. Bu kitoblar malakasiz

odamlar eshitishidan qo‘rqilgani sababidan, baland ovozda o‘qilmaydi (Gündüz, 2016).

Astrologik matnlar: Sfar Malvashiya deb ataladigan bu matnlarda munajjimlar bashorati, sehr, afsunni buzish, kasallik va balolardan qutulish kabi mavzular muhokama qilinadi. Shuningdek, unda oylar, kunlar va soatlarni astrologik baholash bilan bog‘liq masalalar ham o‘rin olgan. Har yilning oxirida ruhoniylar Sfar Malvashiyaning o‘qib, kelgusi yil haqida bashorat qilish orqali jamiyatni boshqaradilar (Nasoraia, 2012).

Sobiyylik e‘tiqodlari. Ulug‘ Borliq (Xudo) e‘tiqodi. Sobiylarning e‘tiqodiga ko‘ra, Xudo muqaddas suv, nur va nurdan oldin mavjud bo‘lgan hamda boshqa barcha mavjudotlarni yaratgan Oliy mavjudotdir. Yovuz va zulmat kuchlari sifatida ta‘riflangan mavjudotlar bunga kirmaydi. Sobiyylik matnlariga ko‘ra, ular «qora suv» yoki «achchiq suv» deb ta‘riflangan va ular yovuzlik, qorong‘ulik va tartibsizliklarni ifodalaydi (Gündüz, 2016).

Gnostik dualizm. Bu dualizm qarama-qarshi xususiyatlarga ega bo‘lgan ikki kuchning mavjudligiga va ularning bir-biri bilan cheksiz raqobatiga asoslanadi. Shunga ko‘ra, bir tomondan yorug‘lik, hayot, samaradorlik, komillik va ezgulikni ifodalovchi olam bo‘lgan «Nur mulki» va unga bog‘liq unsurlar, boshqa tomonda esa zulmat, yovuzlik, yo‘qlik, xunuklik, yetishmovchilik va qurg‘oqchilikni ifodalovchi «Zulmat shohligi» va unga aloqador elementlar mavjud (Nasoraia, 2012).

Sobiyy manbalariga ko‘ra, bu ikki olamning har biri boshqasidan mustaqil tuzilishga ega. Bu ikki olam kelib chiqishi jihatidan turli manbalardan vujudga kelgan. Hayot, yorug‘lik, yorqinlik, hayotiylik, samaradorlik, mukammallik va tartibni ifodalovchi Hayot tamoyilidan yorqinlik va ezgulikni ifodalovchi Nur mulki (Alma d Nhura) paydo bo‘lgan bo‘lsa, Zulmat shohligi (Alma d Hshuka) zulmat, yovuzlik, yo‘qlik, yetishmovchilik, tartibsizlik, o‘lim, qorong‘ulik, xunuklik va qurg‘oqchilikni ifodalovchi Qora suvdan va Zulmat shohidan (Malka d Hshuka) yaratilgan.

«Mara d Rabuta» yoki «Birinchi hayot», deb ataladigan Oliy mavjudotning yana bir nomi «Nur mulki» (Malka d Nhura)dir. Nur olamida son-sanoqsiz nuroniy mavjudotlar (Utriya va Malkiya) mavjud. Ginzada Nur mulki quyidagicha tasvirlangan:

«Senga hamdlar bo‘lsin!... Qudrati zohiriy va cheksiz, sof, bitmas-tuganmas Nur va Oliy bo‘lgan Haqiqat Xudosi. Rahmdil, kechirimli, hamma

odamlarning najotkori, har qanday yaxshilik egasi, qudratli, aqlli (barcha bilguvchi), hamma narsani ko'ruvchi, dono va qudratli (borliq), barcha yuqori, o'rta va pastki Nur olamining egasi, shon-shuhratning Oliy yuzi, hukmronligida sherigi bo'lmagan va taxtini baham ko'radigan tengi bo'lmagan abadiy va ko'rinmas (borliq)» (Nasoraia, 2012).

Dunyoning turli davrlari borasida e'tiqod. sobiiylar Odam va Havvoning yaratilishidan to dunyoning oxirigacha bo'lgan vaqtни to'rtta asosiy qismga ajratadilar. Bularning har biri dunyo davri sifatida tasvirlanadi. Har bir dunyo davri falokat bilan tugaydi. Dastlabki uchta falokattan maqsad imonsizlarni yo'q qilish ekani ta'kidlanadi.

Odam va Havvo bilan boshlangan birinchi dunyo davrida Nur elchisi hisoblangan Manda d Hia (Hayot bilimi) nomli farishta imonlilarni himoya qilish va tarbiyalash vazifasini o'z zimmasiga olgan. Imonsiz odamlarning ko'payishi natijasida qilich va vabolar natijasida birinchi falokat yuz bergan. Faqat Ram va Rud ismli insonlar qutqarib qolingan.

Ikkinchi dunyo davrida Hibil ya'ni Nur Ruhi insoniyatning himoyachisi va tarbiyachisi rolini o'z zimmasiga olgan. Imonsizlarning ko'payishi natijasida yong'in kelib chiqqan va ikkinchi ofat sodir bo'lgan. Faqat Sho'rbay va Sharhabel ismli ikki inson qutqarib qolingan.

Uchinchi dunyo davrida Nur Ruhi Shitil insoniyatning himoyachisi va tarbiyachisi rolini o'z zimmasiga olgan. Imonsiz odamlarning ko'payishi natijasida to'fon yuz bergan va uchinchi falokat sodir bo'lgan. Bu davr so'ngida faqat Nuh va uning oilasi qutqarilgan. To'fondan so'ng sobiiylar Nuh va Nuraytaning o'g'li Shum (Som)dan tarqagan. Nuhning boshqa o'g'illari esa Nurayta qiyofasini olgan Zulmat shohligi jonotlaridan biri Ruhadan dunyoga kelgan. Ginzada boshqa jamiyatlar bu bolalardan ko'paygani alohida ta'kidlangan. Bu yerda aytilishi kerak bo'lgan xabar, sobiiylardan boshqa odamlar yovuzlikdan kelib chiqqan.

To'rtinchi davr – dunyoning oxirgi davri. Bu davrda Nurning himoya va tarbiyaviy ruhi Anushdir. U o'zi bilan olib yurgan maxfiy yengil qurollari va kuchlari bilan imonsizlarga qarshi kurashadi va u Yahyo kabi sobiiy liderlarni tayyorlash va tarbiyalashni o'z zimmasiga oladi (Gündüz, 2016). Yuqoridagilardan xulosa qilinsa sobiiylar o'zlarini xalqlarning eng tozasi, deb hisoblashlari va Yahyo ibn Zakariyo bu dindagi eng asosiy shaxs ekani oydinlashadi.

Najot e'tiqodi. sobiiylikka ko'ra, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita asosiy kuchlar – qorong'u olam mavjudotlari va yorug'lik olamining kuchlari inson tanasida jamlangan. Qorong'u olam kuchlari inson tanasiga joylashtirilgan ilohiy ruh tanani tark etmasligini ta'minlashga mas'uldir. Sobiiylikda inson uch qismdan iborat ekani ta'kidlanadi: Tana (Jasad/Pagra), ilohiy ruh (Nishimta) va ruh (Nefs) insonni tashkil. Bunday holda, ilohiy ruh inson tanasida qamoq hayotini o'tkazadi. Ruh inson tanasining barcha istaklari va ehtirolarini qondirish uchun javobgardir. Tanaga joylashtirilgan ilohiy ruh doimo Nur mulkidan uni bu qamoqxonadan qutqarishini so'raydi. Buning yo'li – ilohiy ilmga (Manda) erishishdir (Häberl, 2021).

Abarut tarozusi. Sobiiylik e'tiqodiga ko'ra, Odam Ato 1000 yoshga to'lganda o'lim farishtasi Saurielning jon olish taklifini qabul qilmaydi va Saurieldan o'zining kenja o'g'li, o'sha paytda 80 yoshda bo'lgan Setning (Shis) jonini olishini so'raydi. Otasini juda hurmat qiladigan va itoatkor bo'lgan Set otasining hukmini qabul qiladi va Sauriel uning jonini oladi. Setning sodiq o'g'il sifatida qurbon qilinishi tufayli, sobiiylar uning ruhi Nur olamiga ko'tarilgan eng pok ruh, deb qabul qilinadi. Ular yorug'lik olamiga ko'tarilgan har bir sobiiy ruhi bu dunyo darvozasi oldida Abatur tarozisida Setning joni bilan tortiladi, deb e'tiqod qilishadi. Sobiiylar, dunyo hayotida Nur mulki podshohining ilohiy amrlariga bo'ysungan tirik odamlar o'limidan keyin nurdan oq libos kiyishi, ilohiy amrlarga muvofiq yashamaydiganlar qora libos kiyib tanani tark etadi, deb ishonadilar. Nur mulki eshigi tomon yuksalish safari amrlarga amal qilganlar uchun 40 kun, amal qilmaganlar uchun 45 kun davom etadi. Avval ular 7ta sayyoradan o'tadilar.

Tirikligida ilohiy amrlarga binoan yashaganlar bu sayyoralardan tezda o'tib, Nur olami eshigiga kelishadi. Bu yerda ular Abatur tarozida Setning joni bilan tortiladi va ularning yaxshi amallari ulardan ustun bo'lgani uchun Ruh bilan birlashib, Nur olamida o'z o'rinlarini egallaydilar. Bu yerda ular xotini va uni kutib turgan yaqinlarini uchratishadi. Hayotligida ilohiy amrlarga amal qilmaganlar har bir sayyorada qilgan gunoh turiga qarab azob chekib, Nur olami eshigiga kelishadi. Bu yerda ular Abatur tarozida Setning joni bilan tortiladi va o'zlarining gunohlari tufayli Ruh bilan birlasha olmaydilar va ular gunohlariga yarasha jazosini tortish sayyoralarga qaytariladi. Bu yerda ular qiyomat kuniga qadar azob va qiynoq muhitida qoladilar (Gündüz, 2016).

Oxirat ishonchi. Sobiylar, to'rtinchi hayot davri – Quddusning tashkil etilishi bilan boshlanadigan, yovuzlik va urushlar asta-sekin ko'payib boruvchi davr «Oxir zamon», deb e'tiqod qiladilar. Bu davrda sobiylarga qarshi zo'ravonlik va zulm, ochlik, qurg'oqchilik, kasalliklar va tabiiy ofatlar kuchayadi. Xristian apokalipsisiga o'xshash tarzda sobiylilikda qiyomatning ba'zi alomatlari mavjud. Bu alomatlarining eng kattasi okeanga tushadigan yulduz, yetti dengizning suvlari qizil rangga aylanishi hisoblanadi. Bu suvlarda ichganlar bepusht bo'lib, nihoyat katta bo'ron boshlanadi. Ushbu alomatlardan keyin «Prashai Siva» (So'nggi jangchi) paydo bo'ladi. Qaysidir ma'noda xaloskor bo'lgan Prashai Siva davrida barcha yovuzlik tugaydi, urushlar va barcha tabiiy ofatlar yo'qoladi. Bu davr «Oltin asr» bo'ladi. Prashai Sivaning hukmronligi oxirzamongacha davom etadi. Qiyomat kuni havoning zaharlanishidan avval barcha tirik mavjudotlar nobud bo'ladi, keyin sayyoralar va burjlar yo'qoladi (Gündüz, 2016).

Qiyomatdan keyin qilinadigan hisob-kitob Nur olamiga qabul qilinganlar uchun emas, balki sayyoralariga qaytarilganlar va sobiyy bo'lmaganlar uchun olib boriladi. Sayyoralaridagi sobiylar Suf dengizi, deb nomlangan do'zaxga yuboriladi va u yerda ular gunohlariga yarasha ma'lum muddat qoladilar. Gunohlaridan poklangan sobiylar Nur elchisi Hibil Ziva tomonidan suvga cho'mdirilib, Nur olamiga qabul qilinadi. Sobiyy bo'lmaganlar gunohlari ko'pligida abadiy Suf dengizida qoladilar, ular hech qachon Nur olamiga ko'tarila olmaydilar (Nasoraia, 2012).

NATIJA

Ko'plab tafsir kitoblarida sobiylarning islomdagi kabi besh vaqt namoz o'qihslari keltirilgan. Lekin ularning namozlari islomdagi ibodat bilan bir xil emas. Sobiylilikda «namoz» faqat duodan iborat bo'lib, kuniga 5 marta o'qiladi, shundan 3tasi kunduzi, 2tasi kechasi amalga oshiriladi. Sobiylar ibodatlarini shimol tomonga qarab olib borishadi. Ular shimolni qibla sifatida qabul qiladilar. Sababi shimol ularning nazida Nur shohi va yorug'lik dunyosining joyi hisoblanadi. Shuningdek sobiylar qurbonlik ham keltirishadi. Qurbonlik sifatida kabutarlar va qo'chqorlar ishlatiladi. Qo'y urg'ochi bo'lgani uchun uni qurbonlik qilib bo'lmaydi. Kabutarda bunday tabu yo'q. Qoramol va tovuq kabi

hayvonlardan qurbonlik qilish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Yilning ma'lum kunlari sobiylar orasida muqaddas kunlar va bayramlar sifatida nishonlansa, ba'zi kunlar omadsiz va yomon kunlar hisoblanadi. Mbattal, deb ataladigan omadsiz va yomon kunlarda tashqariga chiqish, savdo qilish va har qanday ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlanadi. Bunday yomon kunlarda vafot etgan kishilar noxush o'limga duchor bo'lgan deb ishoniladi va ular uchun oddiy o'lim marosimlaridan tashqari ba'zi maxsus diniy marosimlar o'tkaziladi. Odatda, Mbattal kunlarida tug'ilgan bolalar omadsizlik keltiradi, deb ishoniladi va bu baxtsizlikning oldini olish uchun ba'zi maxsus himoya ibodatlarini o'qiladi va ular uchun tumorlar yasaladi. Mbattal, deb hisoblangan kunlardan tashqari, Mbattal soat, deb hisoblangan vaqtlar ham mavjud.

Sobiylar o'zlarining ibodatxonalarini Mandi, deb atashadi. Boshqa dinlarda bo'lgani kabi, Mandi ham sobiylilikda ibodat qilish joyi emas. Bu yer yuzidagi Nur shohligining ramzi hisoblangan ramziy makon hisoblanadi. Mandiga faqat ruhoniylar kirishi mumkin. Oddiy sobiylarga kirish taqiqlangan. Mandida deyarli hech qanday marosimlar bajarilmaydi. Mandilar doim daryo bo'yida quriladi. Ular shimolga qaragan oddiy, derazasiz binolar bo'lib, ibodatxonaga kirish eshigi janubiy tarafda joylashgan bo'ladi. Avval Mandilarning devorlari xurmo daraxti va shoxlaridan yasalgan hamda loy bilan suvalgan. Yuqori qismi bir xil tuzilishga ega. Binoda temir va mixlar ishlatilmaydi. Binoning ichida yoki tashqarisida hech qanday bezak bo'lmaydi. Ibodatxona ichida mebellar ham mavjud emas. Mandining asosiy talabi oldidagi daryodan kanal ochib, uni boshqa kanal bilan daryoga qaytarish uchun qurilgan kichik hovuz bo'lishidir. bor. Mandining janubida joylashgan bu hovuz cho'qintirish marosimida faoydaniladi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki sobiylilik qadimgi e'tiqodlardan sanaladi. Ularning aqidaviy masalalari yahudiylilik, xristianlik aqidalari bilan o'xshash. Sababi sobiylar doim yahudiylar va nasroniylar bilan yonma-yon yashab kelishgan. Arablarda ham ular to'g'risida ma'lumot bo'lgani sababidan Qur'onda ularning faqatgina nomi keltirilgan xolos. Bugungi kunda ham sobiylilik izdoshlari mavjud bo'lib, ular oila va bolalarni

tarbiyalashga katta ahamiyat berishadi. Ular ayollarga katta hurmat ko'rsatadilar va agar ayollar yaratilmaganda, hayot bo'lmasdi, deb hisoblashadi. Shuning uchun ham ular insonlarni onasining ismiga nisbat berishadi. Yolg'iz bo'lish gunoh, farzand ko'rish esa diniy burch ekaniga ishonishadi. Sobiylarning to'ylari diniy marosimga o'xshaydi. Ko'pxotinlilik taqiqlanmagan. Ajralishga yo'l qo'yilmaydi va odamlar imkon qadar nikohlarini davom ettirishga harakat qilishadi. Qoidaga ko'ra, ajrashgan ayollar qayta turmush qurishlari mumkin emas. Agar, ayol ajrashgandan keyin turmushga chiqsa, uning bu nikohdan tug'ilgan bolalari 3 avlod davomida ruhoniylar bo'la olmaydi.

Mutaxassislarining fikricha, bugungi globallashuv, ommaviy axborot vositalarining insoniyatga ta'sirining kuchayishi sobiylar jamoasining o'z dinlari talablariga rioya qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat eng ko'p yosh avlodga ta'sir qilishi e'tiboridan ularning diniy qonun-qoida va majburiyatlarga e'tiborsiz bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan ham sobiylar jamoati kundan kunga o'z o'rnini yo'qotib, soni tez kamayib bormoqda.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Al-Mo'jam al-vasiyy. (2004). Qohira: Maktaba ash-shuruq ad-duvaliyya.
2. Başaran, T. (2011). Thermal Analysis of the Domed Vernacular Houses of Harran, Turkey. Sage Journal, 20(5).
3. Beruniy, A.R. (1968). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: Fan.
4. Bosworth, C. (2003). Harran. Encyclopaedia Iranica, ctp.
5. Buckley, J.J. (2002). The Mandaean: ancient texts and modern people. Oxford: Oxford University Press.
6. Gündüz, Ş. (2016). Sâbiiler: Son Gnostikler. Istanbul: Vadi Yayınları.
7. Häberl, C. (2021). Mandaic and the Palestinian Question. Journal of the American Oriental Society.
8. Hazm, I. (2011). Al-Fisal. Istanbul: Bilnet matbaacilik.
9. Kasir, I. (1999). Muxtasar tafsir Ibn Kasir. Bayrut: Dor al-ma'rifat.
10. Nasoraia, B. S. (2012). Sacred Text and Esoteric Praxis in Sabian Mandaean Religion. Dini Ve Felsefi Metinler: Yirmibirinci Yüzyilda Yeniden Okuma, Anlama Ve Algılama (ctp. 27-53). Sultanbeyli: Kültür Yayın.
11. Norberg, M. (1816). Codex Nasaraeus Liber Adami appellatus. Lund: Lund.
12. Roziy, F. (1981). Mafotih al-g'ayb. Bayrut: Dor al-fikr.
13. Rustamovna, N.A. (2024). The Role Of Imam Shahristan's Scientific Heritage In The Development Of Islamic Sciences. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(5).
14. Lloyd, S., Brice, W. (2013). Harran. Anatolia Studies, .
15. Shahristoniy. (1968). Al-Milal va-n-nihal. Qohira: Muassasa lin-nasr va-t-tavazi'.
16. Shahristani, A. (2024). Attitude To Judaism And Christianity In The Scientific Heritage Of Muhammad Ibn. In The I International Scientific and Practical Conference" Current methods of improving outdated technologies and methods".
17. Shakhristānī, I. M. A. M., & Work, H. (2004). Nihāyat al-Iqdām Fī'ilm Al-Kalām
18. Samatkhonovich, G.S., Ashurovich, K.M., & Murodjon Ugli, A.M.M. (2021). The Entry And Development Of The Science" Usul Al-Fiqh. Mawarounnahr. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6).
19. Sinclair, T. (1990). Eastern Turkey: An Architectural & Archaeological Survey, Volume IV. New York: Pindar Press.
20. Yusuf, S.M. (2008). Tafsiri Hilol. Toshkent: Hilol-nashr.

REFERENCES

1. Al-Mu'jam al-Wasit. (2004). Cairo: Maktaba al-Shuruq al-Duvaliyya.
2. Başaran, T. (2011). Thermal Analysis of the Domed Vernacular Houses of Harran, Turkey. Sage Journal, 20(5).
3. Beruniy, A.R. (1968). Qadimgi Xalqlardan Qolgan Yodgorliklar. Tashkent: Fan.
4. Bosworth, C. (2003). Harran. Encyclopedia Iranica.
5. Buckley, J.J. (2002). The Mandaean: Ancient Texts and Modern People. Oxford: Oxford University Press.
6. Gündüz, Ş. (2016). Sâbiiler: Son Gnostikler. Istanbul: Vadi Yayınları.
7. Häberl, C. (2021). Mandaic and the Palestinian Question. Journal of the American Oriental Society.
8. Hazm, I. (2011). Al-Fisal. Istanbul: Bilnet Matbaacilik.
9. Kathir, I. (1999). Mukhtasar Tafsir Ibn Kathir. Beirut: Dar al-Ma'rifat.
10. Nasoraia, B.S. (2012). Sacred Text and Esoteric Praxis in Sabian Mandaean Religion. In Religious and Philosophical Texts: Re-reading, Understanding, and Perception in the 21st Century (pp. 27–53). Sultanbeyli: Kültür Yayınları.
11. Norberg, M. (1816). Codex Nasaraeus Liber Adami Appellatus. Lund: Lund.
12. Razi, F. (1981). Mafatih al-Ghayb. Beirut: Dar al-Fikr.
13. Rustamovna, N.A. (2024). The Role of Imam Shahristani's Scientific Heritage in the Development of Islamic Sciences. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(5).
14. Lloyd, S., & Bryce, W. (2013). Harran. Anatolian Studies.

15. Shahrastani. (1968). *Al-Milal wa al-Nihal*. Cairo: Muassasa al-Nashr wa al-Tawzi‘.
16. Shahrastani, A. (2024). Attitude to Judaism and Christianity in the Scientific Heritage of Muhammad Ibn. In *The I International Scientific and Practical Conference: Current Methods of Improving Outdated Technologies and Methods*.
17. Shahrastani, I.M.A.M., & Work, H. (2004). *Nihayat al-Iqdam fi ‘Ilm al-Kalam*.
18. Samatkhonovich, G.S., Ashurovich, K.M., & Murodjon Ugli, A.M.M. (2021). The Entry and Development of the Science "Usul al-Fiqh". *Mawarounnahr: Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(6).
19. Sinclair, T. (1990). *Eastern Turkey: An Architectural and Archaeological Survey, Volume IV*. New York: Pindar Press.
20. Yusuf, S.M. (2008). *Tafsiri Hilol*. Tashkent: Hilol-Nashr.

